

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahriddin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон угли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026

Accepted: 17 January 2026

Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE LEGAL NATURE AND REGULATION OF THE AFFILIATED PERSONS INSTITUTE IN CORPORATIONS

Kalandarov Aminjon Amondullayevich

Tashkent State University of Law

Acting Associate Professor of the Department of Business and Corporate Law

E-mail: aminjonqalandarov9@gmail.com

Abstract. The affiliated persons (related parties) institute is one of the central mechanisms of corporate law and is directly connected with conflicts of interest, interested-party (related party) transactions, disclosure, the fiduciary duties of directors and supervisory bodies, and the protection of minority shareholders. In Uzbekistan, the term “affiliated person” and related concepts appear in various legal sources; however, a unified conceptual model, a consistent approach to maintaining the register, disclosure standards, and an integrated liability framework have not yet been sufficiently consolidated. This article explains the legal nature of affiliation, analyzes the fragmented regulation in Uzbekistan’s legal framework, provides a comparative review of the approaches of the EU (SRD II), the United Kingdom (the Companies Act and Listing Rules), and Germany (ARUG II), and substantiates proposals for normative and institutional improvements for Uzbekistan.

Keywords: affiliated person, interested-party transaction, tunnelling, conflict of interest, disclosure, register, minority shareholders.

KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI

Qalandarov Aminjon Amondullayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Tadbirkorlik va korporativ huquq shoʻbasi dotsenti v.b.

Annotatsiya. Affillangan shaxslar instituti korporativ huquqning markaziy mexanizmlaridan biri boʻlib, u manfaatlar toʻqnashuvi, tuzilishidan manfaatdorlik boʻlgan bitimlar (related party transactions), oshkoralik, direktorlar va nazorat organlarining fidutsiar majburiyatlari hamda minoritar aksiyadorlar (ishtirokchilar) himoyasi bilan bevosita bogʻliq. Oʻzbekistonda “affillangan shaxs” atamasi va unga tutash institutlar turli normativ manbalarda mavjud boʻlsa-da, ularning yagona konseptual modeli, reyestrni yuritish yondashuvi, oshkor etish standartlari hamda javobgarlik mexanizmlarining tizimliliği yetarli darajada mustahkamlanmagan. Mazkur maqola affillanganlikning huquqiy tabiatini yoritadi, Oʻzbekiston normativ bazasida institutning fragmentatsiyalashgan holatini tahlil qiladi, YI (SRD II), Buyuk Britaniya (Companies Act va Listing Rules) hamda Germaniya (ARUG II) yondashuvlarini qiyosiy koʻrib chiqadi va Oʻzbekiston uchun normativ hamda institutsional takomillashtirish yoʻnalishlari boʻyicha takliflarni asoslaydi.

Kalit soʻzlar: affillangan shaxs, manfaatdorlik boʻlgan bitim, tunnelling, manfaatlar toʻqnashuvi, oshkoralik, reyestr, minoritar aksiyadorlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N34>

Korporatsiya ichidagi iqtisodiy kuch muvozanati har doim ham teng boʻlmaydi: nazorat paketiga ega aksiyadorlar, ijro organi, kuzatuv kengashi aʼzolari, yirik kontragentlar yoki ular bilan bogʻliq shaxslar kompaniya resurslari ustidan real taʼsirga ega boʻladi. Bu holat “klassik” agentlik muammosini (*manager-shareholder*) ham, “zamonaviy” muammoni — nazorat

qiluvchi aksiyador (*controller*) bilan minoritar aksiyadorlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni ham kuchaytiradi. Raqobatbardosh bozorlar sharoitida affillangan shaxslar bilan bitimlar ba'zan iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi mumkin, biroq aynan shu bitimlar orqali qiymatni "tashqariga chiqarish" (*tunneling*) xavfi ham eng yuqori bo'ladi. Tunneling fenomeni korporativ boshqaruv va huquqiy himoya zaif bo'lgan yurisdiksiyalarda ayniqsa dolzarb ekani ilmiy adabiyotda ko'p bor asoslangan.

Shu nuqtada olimlar "tunnelling"ni aynan nazorat qiluvchi shaxs(lar) tomonidan kompaniyadan qiymatni o'z foydasiga "sug'urib olish" mexanizmi sifatida tushuntiradi. *Johnson* tunnellingni "firmadan aktivlar va foydani nazorat qiluvchi aksiyador manfaatiga ko'chirish" sifatida izohlaydi. [1] Bu hodisa ko'pincha yashirin yoki murakkab bitimlar orqali sodir bo'lgani uchun, u oddiy boshqaruv xatolari (masalan, sust menejment, samarasiz investitsiya)dan farq qiladi: tunnellingning markazida **manfaatlar to'qnashuvi** va nazorat qiluvchi shaxsning **o'z manfaatini ustun qo'yishi** turadi.

Tunnelling qanday ko'rinishlarda bo'ladi? Olimlar odatda uni ikki asosiy turga ajratadi. Birinchisi — ***self-dealing*** (o'ziga qulay bitimlar) orqali resurslarni chiqarish: masalan, aktivlarni "arzon" sotish yoki "qimmat" sotib olish, transfer narxlash (*transfer pricing*), nazorat qiluvchiga foydali shartnomalar, haddan tashqari top-menejer kompensatsiyasi, kredit kafolatlari, korporativ imkoniyatlarni (*corporate opportunities*) o'ziga olib qo'yish va sh.k. Ikkinchisi esa aktivlarni bevosita chiqarmasdan ham nazorat qiluvchining ulushini oshirish — ***dilution***: suyultiruvchi emissiyalar (*dilutive issuance*)*, minoritar ishtirokchini siqib chiqarish (*freezeout*), Insayder axborotidan foydalanib savdo qilish (*insider trading*), "sekin-asta" nazoratni to'plash (*creeping acquisitions*) kabi moliyaviy operatsiyalar orqali minoritar ishtirokchilar ulushini iqtisodiy jihatdan qadrsizlantirish. Natijada nazorat qiluvchi shaxs nazoratni mustahkamlaydi, minoritar esa qiymat yo'qotadi.

Tunnelling faqat "rivojlanayotgan bozorlar muammosi" emas: u huquqni qo'llash kuchli bo'lgan davlatlarda ham uchrashi mumkin, hatto ayrim holatlarda sudlar tomonidan ma'lum huquqiy mantiq asosida "oqlanib" ketishi ham ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun huquqiy nazorat, ayniqsa sud nazorati, bunday bitimlarni baholashda qaysi standartlar qo'llanishiga bog'liq. Bu yerda sudlar odatda ikki tayanch tamoyilga tayanishini mumkin: **"duty of care"** (ehtiyotkorlik majburiyati) va **"duty of loyalty / fiduciary duty"** (sadoqat/fidutsiar majburiyat). [2] Ehtiyotkorlik majburiyati doirasida ko'plab tizimlarda **"business judgment rule"**ga o'xshash yondashuv ishlaydi — manfaatlar to'qnashuvi yo'q deb qaralsa, sudlar direktor qaroriga "katta ehtimol bilan aralashmaydi". [3] Fidutsiar/sadoqat majburiyati esa aksincha, aynan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan vaziyatda "insaydarning o'z foydasini kompaniya yoki aksiyadorlar hisobidan ko'rishi"ni keskinroq nazorat qiladi va bitimning adolatligini tekshirishga undaydi.

Shu sababli rivojlangan yurisdiksiyalar affillanganlik/manfaatdor shaxslar konsepsiyasini ikki tayanch yo'nalishda tartibga soladi:

1. **Oldini olish va protsessual himoya**: manfaatdor shaxsning ovoz berishda cheklanishi, mustaqil direktorlar/qo'mitalar ekspertizasi, **"majority of the minority"** kabi mexanizmlar; [4]
2. **Oshkoralik va ex post javobgarlik**: reyestr, e'lon qilish, bozorni xabardor etish, zararlarni qoplash, bitimni haqiqiy emas deb topish yoki fidutsiar majburiyat buzilishi uchun sanksiya. [5]

O'zbekistonda ham korporativ boshqaruv standartlarini modernizatsiya qilish siyosati mavjud bo'lib, xususan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etish bo'yicha davlat darajasida chora-tadbirlar belgilangan. [6] Biroq affillangan shaxslar instituti aynan "tizim" sifatida (ta'rif → reestr → oshkor etish → protsedura → javobgarlik) izchil ishlashi masalasi hanz konseptual va texnik jihatdan takomillashtirishni talab qiladi.

Afillangan shaxs: huquqiy tabiat va konseptual model

"Afillangan shaxs" odatda quyidagi hollarda kompaniyaga nisbatan "yaqinlik" yoki "bog'liqlik"ni bildiradi: **(i) nazorat (control)** — ulush/ovoz orqali yoki shartnomaviy ta'sir orqali qarorlarni belgilash; **(ii) boshqaruvga daxldorlik (management/board)**: direktorlar, ijro organi, kuzatuv kengashi; **(iii) Oila/yaqin aloqalar**: qarindoshlik yoki manfaat birligi; **(iv) korporativ guruh (group)**: shu'ba, tobe, bog'liq jamiyatlar.

Xalqaro amaliyotda affillangan shaxs g'oyasi, avvalo, korporatsiyaga nisbatan "yaqinlik"ning huquqiy-me'yoriy indikatorlarini belgilashga xizmat qiladi: bunday yaqinlik nazorat (ulush/ovoz yoki shartnomaviy ta'sir orqali qarorlarni belgilash), boshqaruvga daxldorlik (direktorlar va ijro organi, shuningdek kalit menejment), yaqin oila aloqalari hamda korporativ guruh (parent-subsidiary, fellow subsidiary, associate/joint venture va h.k.) doirasidagi bog'liqlik orqali namoyon bo'ladi. Shu yondashuv "related party" konsepsiyasining **International Financial Reporting Standards (IFRS)** tizimidagi **IAS 24 (International Accounting Standard 24)** talqinida aniq ko'rinadi: standart "bog'liq tomon"ni kim deb tan olish kerakligini ta'riflaydi va bu bog'liqlik aniqlanganida, u bilan bo'lgan munosabatlar hamda bitimlar bo'yicha oshkor etish (disclosure) talablarini buxgalteriya hisobi standartlari orqali belgilaydi. [7]

Mazkur yondashuv affillangan shaxs institutining konseptual modelini ham izohlashga imkon beradi: tizim "kim bog'liq?" degan identifikatsiyadan boshlanib, so'ng "qaysi bitim muhim (material)?" degan mezonlar, "qanday tartib orqali tasdiqlanadi?" degan mexanizmlari hamda yakunda "qanday oshkor etiladi va buzilganda qanday javobgarlik yuzaga keladi?" degan oshkoralik – *enforcement* (huquqni qo'llash va javobgarlik mexanizmlari) bloklari bilan yakunlanadi. Aynan shu to'rt bo'g'inli mantiq **SRD II (Shareholder Rights Directive II – Aksiyadorlar huquqlari to'g'risidagi direktiva (II))** doirasida related party transactions bo'yicha umumiy Yevropa modelida ham aks etadi: muhim (material) bitimlarni belgilash, ularni ommaga e'lon qilish, tasdiqlash tartibini joriy etish va affillangan shaxsning protsedurada o'z manfaatini o'tkazib yuborishini cheklash kabi talablar 9c-modda orqali minimal standart sifatida mustahkamlangan. [8]

Buyuk Britaniyada ham manfaatlar to'qnashuvi va bog'liq tomonlar bilan munosabatlarni boshqarish ikki darajada "tizimlashtiriladi". Birinchi daraja — kompaniya ichidagi fidutsiar intizom: **Companies Act 2006** (Kompaniyalar to'g'risida 2006) direktorlar zimmasiga manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan qochish majburiyatini (s.175) [9] hamda rejalashtirilayotgan bitim/kelishuvdagi manfaatni e'lon qilish majburiyatini (s.177) [10] yuklaydi. Ikkinchi daraja — bozor intizomi va investor himoyasi: birjada kotirovka qilinadigan emitentlar uchun **FCA Listing Rules** manfaatdor shaxslar bilan tuziladigan bitim bo'yicha qo'shimcha shaffoflik va ma'qullash talablarini (masalan, ayrim holatlarda aksiyadorlar roziligi, mustaqil baholash/"fairness" elementlari, bozorga xabar berish) kuchaytiradi. [11] Shu orqali Buyuk Britaniya modeli "kompaniya ichidagi fidutsiar

majburiyatlar”ni “kapital bozori qoidalari” bilan bog‘lab, affillanganlik xavfini nafaqat ichki boshqaruv, balki bozor oshkoraligi orqali ham jilovlashga urinadi.

Shu bilan birga, 2024-yildan boshlab FCA yangi UK listing rejimiga o‘tishda manfaatdor shaxslar bilan tuziladigan bitimlar bo‘yicha **yanada** “ axborotni oshkor etishga asoslangan” **yondashuv**ni kuchaytirib, ko‘plab holatlarda aksiyadorlardan majburiy ravishda ovoz berishni talab qilmaslik yo‘lini tanlaganini ham ochiq qayd etadi (bunda kengroq oshkoralik, direktorlarning fidutsiar majburiyatlari, “*fair and reasonable*” yondashuvi va listing bo‘yicha vakolatli maslahatchi (*sponsor*) ishtiroki kabi kafolatlar saqlanishi ta’kidlanadi). [12] Ilmiy adabiyotda esa, masalan **Paul Davies** UK modelini aynan “umumiy korporativ huquq + listing qoidalari” kombinatsiyasi sifatida tushuntiradi va bozorning bitim adolatililigi baholashi uchun oshkor qilish sifati va “adolatlilik” haqidagi axborot yetarliligi masalasini muhokama qiladi. [13]

Germaniya SRD II’ni implementatsiya qilish jarayonida ushbu konseptual modelni milliy korporativ huquq instrumentlariga “o‘tkazdi”: birjada kotirovka qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari uchun “*nahestehende Personen*” (yaqin/aloqador shaxslar) tushunchasi xalqaro hisobot standartlariga, xususan IAS 24 (hamda ayrim holatlarda IAS 28) mezonlariga havola qilish orqali belgilandi; natijada bog‘liq shaxslarni aniqlash (identifikatsiya) masalasi IFRS mantiqi bilan uyg‘unlashdi. [14] Shuningdek, Germaniya modelida “materiallik”ni chetlab o‘tishni oldini oluvchi texnik mexanizmlar (jumladan bitimlarni bir yil ichida jamlab baholash) ham nazarda tutilib, muhim bitimlar bo‘yicha ikki asosiy kafolat — tasdiqlash (kuzatuv kengashining roziligi) va oshkoralik (bitim haqida e’lon qilish) tizimi shakllantirildi; bu yondashuv amaliy izohlarda ham “approval + publication” yondashuvi sifatida izohlanadi. [15] **ARUG II (Aksiyadorlar huquqlari to‘g‘risidagi direktiva (II) ni (SRD II) amalga oshirish to‘g‘risidagi qonun)** doirasidagi islohotlarning siyosiy-huquqiy fonida ham “*nahestehenden Personen*” bilan bitimlar bo‘yicha yangi talablar Germaniya korporativ boshqaruv tizimini minoritarlar manfaatini himoya qiluvchi va bozor shaffofligini kuchaytiruvchi standartlarga yaqinlashtirishga qaratilgani ta’kidlanadi. [16]

Affillanganlikning o‘zi “yomon” emas; u **xatar indikatoridir**. Huquqning vazifasi — affillanganlik mavjud bo‘lgan joyda:

- qaror qabul qilish jarayonini “tozalash” (*conflict cleansing*),
- ma’lumot assimetriyasini kamaytirish (*disclosure*),
- minoritarlarning iqtisodiy manfaatini himoya qilish (*fairness*),
- bozor ishonchini saqlash (*market integrity*).

OECD/G20 Korporativ boshqaruv prinsiplari ham aynan oshkoralik, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishni barqaror boshqaruvning tayanch elementlari sifatida ko‘rsatadi. [17]

O‘zbekiston qonunchiligida affillangan shaxslar: mavjud holat va muammolar

O‘zbekistonda “affillangan shaxs” instituti **yagona kodifikatsiyalashgan model** sifatida (masalan, Fuqarolik kodeksida “universal” ta’rif ko‘rinishida) mustahkamlanmagan. Natijada affillanganlik mezonlari turli sohalarda **turlicha vazifa** bajaradi: korporativ boshqaruvda — fidutsiar majburiyatlar buzilishi xavflarini (manfaatlar to‘qnashuvi, manfaatdor bitimlar) jilovlash; raqobatda esa — nazorat/konsentratsiya va “ta’sir o‘tkazish” holatlarini aniqlash.

Masalan, aksiyadorlik jamiyatlari doirasida affillangan shaxslar alohida toifalar kesimida sanab o‘tiladi: kuzatuv kengashi a’zolari, ijroiya organi, jamiyatning 20% va undan

ortiq ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi shaxs(lar), shuningdek yuqoridagi shaxslarning yaqin qarindoshlari va ayrim boshqa bog'liqliklar (ta'sischi/rahbarlik va h.k.). [18]

Shu bilan birga, raqobat (antimonopoliya) kontekstida affillanganlik **davlat ishtirokidagi korxonalar** bilan bog'liq alohida normalar orqali yoritiladi: masalan, "davlat ishtirokidagi korxonaning affillangan shaxsi" deganda ustav fondida (kapitalida) 20% va undan ortiq ulushga egalik bevosita yoxud bilvosita davlat ishtirokidagi korxonalar ham ko'rsatiladi. [19]

Demak, bugungi holatda affillanganlik:

- bir tomondan, AJlar bo'yicha **korporativ-komplayens** instrumenti (ro'yxat, oshkoralik, tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlar);
- ikkinchi tomondan, raqobat huquqida **nazorat va ta'sir** (konsentratsiya, "shaxslar guruhi" yondashuvi) bilan tutash institut sifatida namoyon bo'ladi.

Fragmentatsiya muammosi shundaki, "affillanganlik" atamasi turli normativ-huquqiy hujjatlarda turlicha maqsadlarda va turli qo'llash shartlari (triggerlari) bilan ishlatiladi; natijada korporativ munosabatlarga mos, yagona, universal hamda amaliyotda qo'llashga qulay ta'rifni shakllantirish qiyinlashadi.

Amaldagi tartibda AJlar affillangan shaxslar hisobini yuritishi, hisobot berishi va ro'yxatni e'lon qilishi kerak. Xususan:

- affillanganlik asoslari vujudga kelganidan so'ng affillangan shaxs **3 ish kunidan kechiktirmay** jamiyatni yozma xabardor qilishi shart;
- axborot o'z vaqtida taqdim etilmasa va jamiyatga zarar yetsa, affillangan shaxs **yetkazilgan zarar miqdorida javobgar** bo'lishi mumkin;
- jamiyat affillangan shaxslar ro'yxatini vakolatli organ belgilagan tartib va muddatlarda **har yili e'lon qilishi** shart.

Bundan tashqari, Jamiyat o'zi va affillangan shaxs o'rtasida tuzilgan bitim haqidagi axborotni bitim tuzilgan paytdan e'tiboran 72 soat ichida Korporativ axborotning yagona portalida oshkor etishi shart. [20]

Lekin "reystri bor" degani "reystri standartlashgan" degani emas. Amaldagi tartibga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari affillangan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda oshkor qiladi (jumladan, korporativ axborot portalida va jamiyatning rasmiy veb-saytida). Biroq amaliy muammo shundaki, bu oshkor etishning mavjudligi reystri **yagona va majburiy standart** asosida yuritilayotganini avtomatik anglatmaydi: ko'p hollarda reystri minimal atributlari (identifikatorlar, bog'liqlik turi, manfaatdorlik manbai, nazorat darajasi), ma'lumotlarni verifikatsiya qilish (tasdiqlovchi hujjatlar, benefitsiar egalikni aniqlash), yangilashga sabab bo'luvchi holatlar va muddatlari, ma'lumotni taqdim etish formatlari (strukturaviy va mashinada o'qiladigan ko'rinish), shuningdek mas'ul shaxslar va sanksiyalar zanjiri bitta izchil tizimga jamlanmagan bo'ladi. Natijada ma'lumot ko'pincha korporativ oshkoralik hujjatlarida parchalanib qoladi, reystri ayrim hollarda formallikka aylanadi, minoritar aksiyadorlar hamda investorlar uchun esa affillanganlikdan kelib chiqadigan xatarlar "oldindan ko'rinadigan" va tez tahlil qilinadigan darajada ochilmaydi.

Affillangan/manfaatdor shaxs bilan bitimlar korporativ boshqaruvda manfaatlar to'qnashuvi eng ko'p yuzaga chiqadigan nuqtadir. Shu bois qonunchilik bunday bitimlar bo'yicha "oshkor etish → ichki tekshiruv → xolis tasdiqlash → keyingi oshkoralik va nizolashish" ketma-ketligini belgilaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida affillangan shaxs bitim tuzishdan oldin jamiyatni yozma ravishda xabardor qiladi (affillanganlik fakti va bitimning muhim shartlari ko'rsatiladi), bitim ijroiya organ hamda ichki audit tomonidan qisqa muddatda o'rganilib bayonnoma rasmiylashtiriladi, so'ng kuzatuv kengashi belgilangan muddatda qaror qiladi; agar kuzatuv kengashida ikki va undan ortiq affillangan a'zo bo'lsa, masala umumiy yig'ilishga chiqariladi. Affillangan shaxs muhokama va ovoz berishda qatnashmaydi; yirikroq bitimlarda (sof aktivlarning 10% va undan ko'pi) bozor qiymati va tashqi auditor xulosasi kabi qo'shimcha talablar qo'yiladi; shuningdek aksiyadorlar bitim yuzasidan axborot olish va nizolashish huquqiga ega.[21]

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda ham manfaatdorlik bo'lgan bitimlar bo'yicha umumiy qoida shuki, manfaatdor shaxslar doirasi (jumladan 20%+ ulushga ega ishtirokchi, ijro organi, kuzatuv kengashi a'zolari, ularning yaqin qarindoshlari va bog'liq tuzilmalar) belgilangan hamda bunday bitimlar ishtirokchilar umumiy yig'ilishining roziligisiz tuzilmasligi nazarda tutiladi. [22]

Amaliy muammo esa qoidalarning mavjudligida emas, balki ularning bir xil sifatda bajarilishida: yozma bildirishlar mazmuni, manfaatlar to'qnashuvini real ochish, baholash/auditning mustaqilligi va minoritarlar uchun axborotni qulay formatda berish doim ham barqaror standartda ishlamaydi.

Qiyosiy tahlil nuqtai nazaridan qaralganda, O'zbekiston uchun "ishlaydigan model"ni tanlash masalasi aslida bitta yadro savolga borib taqaladi: *korporatsiya ichida iqtisodiy kuch notekis taqsimlangan sharoitda nazorat paketiga ega aksiyadorlar, boshqaruv organlari yoki ular bilan bog'liq shaxslarning ta'siri kompaniya resurslari hisobidan minoritar aksiyadorlar manfaatiga zid yo'nalishga burilib ketmasligi uchun qanday huquqiy arxitektura kerak?* Yuqorida ta'kidlanganidek, affillanganlikning o'zi "yomon" emas — u xatar indikatoridir. Huquqning vazifasi esa affillanganlik mavjud bo'lgan joyda qaror qabul qilish jarayonini xolislashtirish, axborot assimetriyasini kamaytirish, adolatlilikni ta'minlash va bozor ishonchini saqlashdan iborat. Shu sabab ham rivojlangan yurisdiksiyalarda (YI, Buyuk Britaniya, Germaniya) yondashuv birgina instrumentga tayanmaydi; aksincha, "kim bog'liq?" degan identifikatsiya, "qaysi bitim muhim?" degan materiallik mezoni, "qanday ma'qullanadi?" degan qaror qabul qilish talablari, "nima va qayerda e'lon qilinadi?" degan oshkoralik hamda "buzilsa nima bo'ladi?" degan javobgarlik bloklari bitta zanjirga ulangan bo'ladi. O'zbekiston amaliyotida esa institutning ayrim elementlari mavjud bo'lsa-da, aynan shu zanjirning bir joyga jamlanmaganligi va bir xil ishlamasligi sababli natija ko'pincha kutilgan darajada chiqmaydi. Turli huquqiy hujjatlarda "affillanganlik" atamasi turlicha vazifa bilan ishlatiladi, reyestr mavjudligi doim ham uni standartlashgan, tekshiriladigan va bozor uchun qulay formatda ishlaydigan tizimga aylantirmaydi, muhim bitimlar bo'yicha qaror qabul qilishning xolisligini ta'minlaydigan talablar esa barcha subyektlarda bir xil komplayens madaniyati bilan bajarilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston uchun eng yaxshi ishlaydigan model — affillangan shaxslar institutini alohida normalar yig'indisi sifatida emas, balki yagona korporativ-komplayens tizimi sifatida kodifikatsiya qilishdir; bunda ta'rifning aniqligi, reyestrning standartlashuvi va tekshirilishi, muhim bitimlar bo'yicha xolis qaror qabul qilish talablari, oshkoralikning bozor uchun qulay shakli va javobgarlikning izchil mexanizmi bir paketda ishlaydi. Bunday paketni real amaliy mexanizmga aylantirishda esa texnologik yechimlar,

xususan **InterestRegistry** kabi tizimlar alohida ahamiyatga ega: ular deklaratsiyalarni markazlashgan tarzda yig'ish, bog'liqlik indikatorlarini avtomatik aniqlash, muhim bitimlarni belgilangan tartib bo'yicha ichki ko'rib chiqish va ma'qullash jarayoniga yo'naltirish, audit izini saqlash hamda oshkoralik uchun tayyor hisobotlar chiqarish orqali qonun matnini ishlaydigan boshqaruv amaliyotiga aylantiradi. Shu tariqa, affillangan shaxslar instituti minoritarlar uchun faqat keyin e'tiroz qilish vositasi bo'lib qolmasdan, xatarlarni oldindan ko'radigan, adolatlilikni ta'minlaydigan va bozor ishonchini mustahkamlaydigan zamonaviy korporativ boshqaruv tayanchiga aylanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Johnson, S., La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2000, February). *Tunnelling* (NBER Working Paper No. 7523). National Bureau of Economic Research. https://www.nber.org/system/files/working_papers/w7523/w7523.pdf
2. Companies Act 2006, c. 46, § 175 (UK). <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/section/175>
3. Companies Act 2006, c. 46, § 177 (UK). <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/section/177>
4. European Parliament & Council of the European Union. (2007, July 11). *Directive 2007/36/EC of the European Parliament and of the Council of 11 July 2007 on the exercise of certain rights of shareholders in listed companies* (Article 9c: Transparency and approval of related party transactions). Legislation.gov.uk. <https://www.legislation.gov.uk/eudr/2007/36/article/9c/data.html>
5. Davies, P. L., et al. (2020). Implementation of the SRD II provisions on related party transactions (ECGI Law Working Paper No. 543/2020). European Corporate Governance Institute. https://www.ecgi.global/sites/default/files/working_papers/documents/ecledaviesetafinal_0.pdf
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-2635197>
7. IFRS Foundation. (n.d.). *IAS 24 Related Party Disclosures*. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-24-related-party-disclosures/>
8. European Parliament, & Council of the European Union. (2017, May 17). Directive (EU) 2017/828 of the European Parliament and of the Council of 17 May 2017 amending Directive 2007/36/EC as regards the encouragement of long-term shareholder engagement. Official Journal of the European Union, L 132. <http://data.europa.eu/eli/dir/2017/828/oj/eng>
9. Legislation.gov.uk. (2006). *Companies Act 2006, c. 46, s. 175 (Duty to avoid conflicts of interest)*.
10. Legislation.gov.uk. (2006). *Companies Act 2006, c. 46, s. 177 (Duty to declare interest in proposed transaction or arrangement)*.
11. Financial Conduct Authority. (n.d.). *Listing Rules (LR) 11: Related party transactions* (FCA Handbook)
12. Financial Conduct Authority. (2024). *PS24/6: Primary Markets Effectiveness Review: Feedback to CP23/31 and final UK Listing Rules*. <https://www.fca.org.uk/publication/policy/ps24-6.pdf>
13. Davies, P. (2022). *Related Party Transactions on the London Stock Exchange* (working paper/article). https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4022486

14. Noerr. (2020, January 2). ARUG II in Kraft getreten: Die nun geltenden Vorgaben für Related Party Transactions. <https://www.noerr.com/de/insights/arug-ii-in-kraft-getreten-die-nun-geltenden-vorgaben-fur-related-party-transactions>
15. Deloitte Legal. (2020). ARUG II und mögliche Berührungspunkte zu Transfer Pricing. <https://www.deloitte.com/dl/de/services/legal/perspectives/ARUG-II-transfer-pricing.html>
16. PwC Legal. (2019). Gesetz zur Umsetzung der zweiten Aktionärsrechterichtlinie (ARUG II) passiert den Bundesrat. <https://legal.pwc.de/de/news/fachbeitraege/gesetz-zur-umsetzung-der-zweiten-aktionaersrechterichtlinie-arug-ii-passiert-den-bundesrat>
17. OECD. (2023). *G20/OECD principles of corporate governance 2023*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/ed750b30-en>
18. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 85-modda. <https://lex.uz/docs/-2382409#-2383232>
19. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni, 4-modda. <https://lex.uz/docs/-6518381>
20. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 106-modda. <https://lex.uz/docs/-2382409#-2383232>
21. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.
22. O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni, 43-modda. <https://lex.uz/docs/-22525#-23230>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).